

Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Soliyeva Komila G‘ayrat qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya fani haqida umumiy tushuncha, psixologiya fanining sohalari va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, psixika, ruxiyat, miya, ong, sezgi, idrok, xotira, hayol, fantaziya xolat, xususiyat, jarayon, motivatsiya.

Аннотация: Данная статья дает общее представление о науке психологии, областях психологии и ее взаимосвязи с другими дисциплинами.

Ключевые слова: Психология, психика, психика, мозг, разум, интуиция, восприятие, память, воображение, состояние фантазии, черта, процесс, мотивация.

Abstract: This article provides a general understanding of the science of psychology, the fields of psychology and its relationship with other disciplines.

Key words: Psychology, psyche, psyche, brain, mind, intuition, perception, memory, imagination, fantasy state, trait, process, motivation.

Psixologiya – grekcha «psyche» - jon, rux va «logos» - ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, inson ruxiy dunyosiga aloqador barcha xodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil qiladi.

Biroq hozirgi davrda “jon” tushunchasi o‘rniga “psixika”ni qo‘llashda davom etmoqdamiz. Lingvistik nuqtai nazardan jon, psixika tushunchalari aynan bir xil ma’noni bildiradi. Lekin psixika tushunchasi bugungi kunda jondan kengroq ko‘lamga ega bo‘lib ham ko‘zga ko‘rinuvchi ham ko‘zga ko‘rinmovchi tomonlarini o‘zida aks ettiradi. Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlaridir, deb ta’riflash mumkin.

Psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o‘rganadi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Hozirgi vaqtda psixologiya o‘zi

o'rganadigan alohida predmetiga, o'zining alohida vazifalariga, o'zining maxsus tadqiqot metodlariga egadir; uning psixologik muassasalar tarmog'i (institutlari, labororiyalari, psixolog kadrlarni tayyorlovchi o'quv yurtlari), ixtisoslashtirilgan kitob nashiriyotlari mavjud. Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan konkret anatomiq-fiziologik apparatlarning ishlashini taqazo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiatini va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi.

Psixika to'g'risidgi dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixika mohiyati bilan tanishamiz. Odatda, psixik xodisalar deganda ichki, sub'ektiv tajriba faktlarining (voqelikning) namoyon bo'lishi tushuniladi, boshqacha aytganda psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol kabi har bir olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Ichki, sub'ektiv tajribaning o'zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zxerikish tuyg'ulari, uning nimalarinidir esga tushirishi, biron bir hohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, xadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosi tarkibiy qismlaridir, ya'ni ularning hammasi sub'ektiv psixik hodisalar sanaladi.

Subyektiv hodisalarning asosiy xususiyati – ularning bevosita sub'ektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikqilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo'layotganligini anglab turamiz ham shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Obrazli qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sub'ektiv hodisalar xususiyatidan kelib chiqqan holda ayrim psixologlar psixologiya fani sub'ektiv kechinmalarining paydo bo'lishi va ularning kechishi bilan shug'ullanishi zarur, uning asosiy metodi o'zini-o'zi kuzatish (shaxsning o'z fikrlari, xis-tuyg'ulari, xatti harakatlarini o'zi kuzatishi)

bo‘lmog‘i kenrak, degan xulosaga keladilar. Lekin psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti bunday cheklanganlik fanni mutlaqo ta’minlay olmasligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003
2. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989
3. www.google.com internet sayti